

## DANTENING ILOHIY KOMEDIYA ASARI

*Orifova Sevinch Dilshod qizi*

*KUIT Samarqand filiali talabasi .*

*Ilmiy rahbar: N.Zubaydova.*

**Annotatsiya:** Mualliflar asar yozishda turli usullarni tanlaydi Dante tushunchalar va turli xil strukturalar tarzida namoyish etadi. Muallif Abdulla Oripov esa rivoyat usulini tanlaydi. Lekin ikkala asarni ham ma'nosi o'zgarmaydi. Ikkala asarda ham insonning nafsidan holos bo'ladigan gunohlarning oqibati nimalarga olib kelishini keltirib o'kazgan. Menga ikkala asar ham yaxshi tasurot berdi. U juda ham ta'sirli asar ekanini tushunib yetdim. Ikki buyuk yozuvchilar Dante va Abdulla Oripov bu asarlarida odamiylik g'oyalarini aks ettirgan. Odamzot bu asrlardan beri turli xunuk illatlardan haligacha xolos bo'lgani ham yo'q. Azaldan xalqlar orasida yomonlikka yomonlik bilan emas yaxshilik bilan javob qaytarish kerak degan naqlni doim yodda tutishi kerak "Ilohiy kamidiya " "Jannatga yo'l" asarlarini shunday umumodamiy ahamiyatiga ega bo'lgan naqlarni esimizga solidi.

**Kalit so'zlar:** G'arbiy Yevropa uygonish davri adabiyoti, O'zbek adabiyoti, Dante, Abdulla Oripov, XVI asr

## KIRISH

Dante Florensiyada dunyoga kelgan. Uning tug'ulgan sanasi ma'lum emas manbalarda Danteni tugulgan sanasini 1265-yilning 21-mayida yana boshqa manbalarda esa 1-iyunda deb ma'lumot berishgan shu paytgacha Dantening aniq tugulgan yilini hech kim bilmaydi.

Bizga ma'lumki turli xalqlar adabiyotlari o'rtasida o'xshashliklar ko'p uchraydi. Adabiy jarayon va xodisalarning bir biriga ta'siri deb izohlanadi. G'arbiy Yevropada XVI asrda bo'lib o'tgan uyg'onish davri adabiyotining namayondalari ijodi misolida ko'rsak ham bo'ladi. Italiyalik mashxur shoirning "Ilohiy komediya " asarini o'zbek mashxur shoiri o'zbek tiliga tarjima qilgan "Ilohiy komediya " asari Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l " she'riy asariga mantiqan o'xshaydi

Italiyalik mashxur shoir Dantening "Ilohiy Komediya" asarini Abdulla Oripov 28 yoshida tarjima qilishni boshlaydi. Abdulla Oripov tarjima jarayoni juda yaxshi o'tadi. Bu asar tarjima qilish bilan cheklanib qolmaydi. Bu asarni tarjima qilish jarayonida o'ziga ham ilhom kela boshlaydi va o'zi ham komediya tarzida asar yozib tugatadi. Bu asarni "Jannatga yo'l " deb nomlaydi.

Tarjima jarayonida shoir shunga amin bo'ladiki o'zining italyan shoiri Dante bilan o'zining hamkasb fikrdosh ekaniga amin bo'ladi. Agar siz ilohiy komediya asarini o'qimoqchi bo'lsangiz va asarni siz o'qiydigan kutubxonalardan topa olmasangiz

Jannatga yo'l asarini o'qing chunki ikkalasida ham mantiqiy o'xshashliklar judayam ko'p Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asari she'riy tarzida yozilgan asar bo'lib. Shu dunyo va narigi dunyoda bo'ladigan voqiyalar asosida yozilgan ikkala yozuvchi ham o'z asarlarida sotqinlik, ig'vogarlik, sutxo'rlik, firibgarlik va ikki yuzlamachilik illatlariga qarshi bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Mualliflar asar yozishda turli usullarni tanlaydi Dante tushunchalar va turli xil strukturalar tarzida namoyish etadi. Muallif Abdulla Oripov esa rivoyat usulini tanlaydi. Lekin ikkala asarni ham ma'nosi o'zgarmaydi. Ikkala asarda ham insonning nafsidan holos bo'ladigan gunohlarning oqibati nimalarga olib kelishini keltirib o'kazgan. Menga ikkala asar ham yaxshi tasurot berdi. U juda ham ta'sirli asar ekanini tushunib yetdim. Ikki buyuk yozuvchilar Dante va Abdulla Oripov bu asarlarida odamiylik g'oyalarini aks ettirgan. Odamzot bu asrlardan beri turli xunuk illatlardan haligacha xolos bo'lgani ham yo'q. Azaldan xalqlar orasida yomonlikka yomonlik bilan emas yaxshilik bilan javob qaytarish kerak degan naqlni doim yodda tutishi kerak "Ilohiy komediya" "Jannatga yo'l" asarlarini shunday umumodamiy ahamiyatiga ega bo'lgan naqlarni esimizga soladi.

### XULOSA

Ikki buyuk faylasuf – Abdulla Oripov va Dante o'z asarlariga insonparvarlik g'oyalarini singdirgan. Insoniyat asrlardan beri turli xunuk illatlardan xalos bo'lolganicha yo'q, lekin bu insonning insoniyligini inkor etishga sabab bo'lolmaydi. Dante va yigit ko'rgan voqealar, turfa gunohkorliklarga yo'l qo'ygan kishilar-u ularning gunohlari orqali ham, dostonlarda uchragan jannatiy kishilar-u ularning yaxshiliklari orqali ham insonga har doim buyuk hilqat deb qarash, odamlar taqdiriga befarq bo'lmaslik, u gunohkormi yoki jannatiymi buni farqi yo'q, har qanday vaziyatda unga yordam qo'lini cho'zish va shavqat qilish kerakligi ta'kidlanadi. Bu g'oya sharq xalqlarida azaldan mavjud bo'lgan "yomonlikka yomonlik bilan emas, yaxshilik bilan javob qaytarish kerak", degan maqolni yodga soladi. Shunday yashasagina insoniyat gullab gashnashi, asrdan asrga yorug' yuz bilan qadam qo'yishi mumkin. "Ilohiy komediya" va "Jannatga yo'l" asarlarini o'qish bizga mana shunday umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni yodimizga soladi. Shu jihatdan bunday noyob jahon adabiyoti durdonalarining umri uzoqdir.

### ADABIYOTLAR

1. Орипов А. Танланган асарлар. 3-жилд. Тошкент., 2001й.
2. Орипов А. Жаннатга йўл. Тошкент., 1980 й.
3. Қўшжонов М., Сувон М..Абдулла Орипов. Тошкент: "Маънавият", 2000 й.
4. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. Тошкент.,1984 й.